

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NEMATOVA NARGIZAXON MUXTOR QIZI

**ANIMATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARGA RUS TILI
FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Nematova Nargizaxon Muxtor qizi Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	3
Нематова Наргиза Мухтор кизи Совершенствование методики обучения студентов русскому языку на основе анимационного подхода.....	25
Nematova Nargizaxon Muxtor qizi Improving the methods of teaching Russian to students based on an animated approach.....	49
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	53

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

NEMATOVA NARGIZAXON MUXTOR QIZI

**ANIMATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARGA RUS TILI
FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/Ped4521 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy Kengash veb-sahifasiga (www.adpi.uz.) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portaliga(www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Negmatova Aropat Muxtorovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar

Azimova Ziyodaxon Ergashevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Xaydarova Nasiba Adhamjonovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy). Tel.: (374) 224-01-70, e-mail: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy). Tel.: (374) 224-01-70

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ da tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.M.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

D.T.Samatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, p.f.d., dotsent

B.A.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissetatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globallashtirish sharoitida hayotning ijtimoiy, gumanitar va madaniy sohalarida jadal rivojlanmoqda, fanlarning integratsiyasi, til hamkorligi va muloqotining rivojlanishi ta'lim texnologiyalarini amaliyotga joriy etish asosida kechmoqda. Talabalarning til kompetensiyalarini shakillantirish, rivojlantirish va takomillashtirish hamda interaktiv dasturlarning yetishmasligi kabi filologik ta'limda muammolar mavjud. Angliya, Amerika, Finlyandiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Kanada, Rossiya kabi dunyoning zamonaviy ta'lim tizimlarida tillarni o'qitishning innovatsion mexanizmlari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. YUNESKO Jahon tashkilotining ta'lim konsepsiyasida shunday deyilgan: "Ta'lim rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan muhim faoliyatdir"¹. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning dolzarb muammolarini samarali hal qilish uchun o'qitishga zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, uning mohiyati uni texnologik asosda qurish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda rus tilini o'qitishda animatsion yondashuvdan foydalanish tajribasining tarqalishi talabalarni o'zgaruvchan dunyoda hayotga tayyorlash zarurati bilan bog'liq, shu bilan birga vaziyatga tezda moslashish, kerakli ma'lumotlarni topish va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Rus tilini o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan va muvafaqqiyatli joriy etilgan animatsion yondashuvlar o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlaydi va talabalarni individual o'quv dasturiga olib chiqadi. Yuqori texnologiyali uskunalardan foydalangan holda o'qituvchilar animatsion o'qitishni faol ravishda amaliyotga tadbiiq etishlari orqali fan mazmuni va real texnologik jarayon o'rtasidagi aloqani ta'minlash, talabada ma'suliyat hissi, tilga qiziqish, savodxonlik va axloqni rivojlantirish yuzasidan tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda rus tilini o'qitishda animatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lib, o'quv jarayonining yakuniy natijasiga – til bilimlarining yangi sohalarini muvafaqqiyatli o'zlashtira oladigan, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchan va dinamik javob bera oladigan, innovatsion ta'lim makonida yuqori axloqiy fazilatlariga ega talabalarni tayyorlashga qaratilgan. Davlat rahbarimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo'ldan to'xtamaymiz"². Rus tili va nutq kompetensiyasini rivojlantirish va filologik bo'lmagan yo'nalishdagi talabalarga rus tilini o'qitishda animatsiya texnologiyalarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, texnologik bosqichlarini aniqlashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PF-6108-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari

¹ YUNESKO. Ta'lim – 2030. Inson deklaratsiyasi va harakatlar doirasi: Koerya Respublikasi 2015-yil 19-25-may.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>

to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"³gi Farmonlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar va Rossiya fan va oliy ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o'rtasida 2024-yil 26-27-may kunlari imzolangan ilmiy tadqiqotlar sohasida qo'shma tanlovlar o'tkazish to'g'risidagi bitim va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o'rganilgan darajasi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limni jadallashtirish va o'quv texnologiyalarini qo'llash masalalari respublikamiz olimlaridan Z.X.Abduraimova⁴, D.R.Boboyeva⁵, G.T.Gasilova⁶, N.M.Mirkurbanov⁷, S.Yu.Islambekova⁸, Yu.Yu.Musurmanova⁹, R.T.Tolipova¹⁰, tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Shuningdek bo'lajak mutaxassislarining kasbiy bilimlarini shakllantirish va takomilllashtirishning turli jihatlarini, xorijiy tillarni xalqaro talablar asosida o'qitish mazmunini ishlab chiqish masalalari Sh.A.Abdullayeva¹¹, E.E.Azmiyeva, F.R.Jumayeva¹² va boshqalar tomonidan tatqiq qilingan.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

⁴ Абдураимова З.Х., Русский язык: учебник / З.Х.Абдураимова, С.Ю.Исламбекова, У.С.Караматова, Л.М.Самадова; под.науч.ред. Е.А.Хамраевой. – 2022.

⁵ D.R. Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi: Darslik / T.: "Barkamol avlod fayz", 2018y.

⁶ Гасилова Г. Т. А Актуальные вопросы использования информационных технологий в обучении русскому языку и литературе // Материалы международной научно-методической конференции // Ташкент, Саранск 9-11 декабря 2021. – С.261

⁷ Миркурбанов Н.М., Русский язык и читательская грамотность: Учебник / под. науч. ред. Н.М.Миркурбанова. Т.: 2022 – 102 с.

⁸ С.Ю.Исламбекова, Ю.Ю.Мусурманова, З.Х.Абдураимова, Л.Н. Тагиева. Рус тили. Дарслик. – Тошкент: Давр, 2018. – Б. 192.

⁹ Мусурманова Ю.Ю. Русский язык: учебник / Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2016. – 225 с.

¹⁰ Толипова Р., Практическая грамматика русского языка: учебное пособие. – Т.: 2012.- 12 с.

¹¹ Abdullayeva Sh. A. O'quvchilarni pedagogik tashhislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta'limi, 2016, №3, 40-45 b.b.

¹²Жумаева Ф.Р., Интеръективация как один из типов транспозиции частей речи /Universum: Архив выпусков журнала «Филология и искусствоведение» 2021 № 12 (90).

MDH davlatlari olimlaridan ushbu muammoni N.Y.Bulankina¹³, V.V.Safonova¹⁴, S.G.Ter-Minasova¹⁵, A.V.Xutorskoy¹⁶, M.Buram ko‘rib chiqqan. Masalani lingvokulturologik jihatdan L.G.Vedenina¹⁷, Y.M.Vereshchagin¹⁸, V.G.Kostomarov¹⁹ tahlilga tortgan; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv G.A.Kitaygorodskaya²⁰, I.S.Yakimanskaya²¹, zamonaviy AKT asosida rus tilini o‘qitish nazariyasini V.G.Apalkov²², M.G.Yevdokimova²³, L.K.Raiskaya²⁴, P.V.Sisoyev²⁵, M.N.Yevstigneyev²⁶, N.S.Petrishcheva²⁷, S.V.Titova²⁸, A.V.Filatova²⁹ va boshqalar tomonidan ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. P.V.Afanasyeva³⁰, S.V.Voronin³¹, A.P.Juravlyov³², V.M.Shaklein³³,

¹³Буланкина Н. Е., Актуальные вопросы совершенствования методологии исследования неуспеваемости современных школьников: ценностные приоритеты / Просвещение – Иностранные языки. – М.: «Просвещение», декабрь, 2024, С.3-9

¹⁴ Сафонова В. В., Социокультурный подход к обучению иностранному языку как специальности / тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.02, доктор педагогических наук Сафонова, Виктория Викторовна, 1992. – 672 с.

¹⁵ Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурные коммуникации: учебное пособие для студентов, аспирантов и соискателей по спец. «Лингвистика и межкультурная коммуникация» – М., 2000. – 262 с.

¹⁶ Хуторской, А. В. Современная дидактика : учебник для вузов / А. В. Хуторской. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2021. — 406 с. — (Высшее образование).

¹⁷ Веденина Л.Г. ЛИНГВИСТИКА – КУЛЬТУРОЛОГИЯ – ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ – ЛИНГВОСТРАНОВЕДЕНИЕ. Концепт: философия, религия, культура. 2019;(1):23-29

¹⁸ Е.М.Верещагин., Психологическая и методическая характеристика двуязычия (Билингвизма). / М.-Берлин:Директ-Медиа, 2014. – 162с.

¹⁹ Костомаров В.Г., Мирофанова О.Д. Методическое руководство для преподавателей русского языка иностранцам - 4-е изд., испр. - Москва : Русский язык, 1988. - 155, [1] с.; 20 см. - (Библиотека преподавателя русского языка как иностранного).

²⁰ Китайгородская Г.А. Интенсивное обучение иностранным языкам. Теория и практика: Учебно-методическое пособие. Москва: Высшая школа; Научно-образовательный центр «Школа Китайгородской». 2009. – 280 с.

²¹ Якиманская И.С. Личностно-ориентированное образование [Текст] / И.С. Якиманская // Новые ценности образования. – М. – 1995. – С. 55.

²² Апалков В.Г., Электрон почта гурухи ёрдамида маданиятлараро компетенцияни шакллантириш методологияси: Пед. фан, номз. дисс. автореф. – Тамбов, 2008. – Б. 21.

²³ Евдокимова М.Г. Инновационная система профессионально ориентированного обучения иностранным языкам в неязыковом вузе. М.:Библио-Глобус, 2017. – 436 с.

²⁴ Райская, М. В. Методика оценки характера эффективности инновационных процессов в среднетехнологичных отраслях обрабатывающей промышленности Российской Федерации / М. В. Райская, А. В. Аксянова // Вопросы инновационной экономики. – 2023. – Т. 13, № 4. – С. 2059-2074.

²⁵ Сысоев П. Учитель vs искусственный интеллект: сравнение качества обратной связи от преподавателя и генеративного искусственного интеллекта при оценке творческого письма учащихся
Ноябрь. 2024. Перспективы науки и образования 71(5):694-712 с.

²⁶ Евстигнеев М.Н., Евстигнеева И.А. Дистанционные образовательные технологии в обучении иностранному языку. Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2021.Т. 26, № 190 – 25-32 с.

²⁷ N.S. Petrishcheva, “Typology of language Internet projects,” TSU Bulletin, Iss. 8 (88), pp. 60-66, 2010.

²⁸ Titova S. V. Teoreticheskiye osnovy kompyuterno-informatsionnoy modeli obucheniya inostrannym yazykam: diss... d-ra ped. nauk – 13.00.02. – М., 2004. – 415 P.

²⁹ Filatova A.V. Problems and perspectives of ecological situation in the urban district of Chapaevsk for 2014: monograph. Quality of life of population and ecology: monograph. L.N. Semerkova (Ed.). MNITs PGSKhA. Penza, RIO PGSKhA, 2014, pp. 89–94.

³⁰Афанасьева П.В., Реализация когнитивного подхода при самостоятельной работе по изучению грамматико-орфографических тем с программно-педагогическими средствами (5 класс) автореф. на соискание уч. степ. Канд. пед.наук. – Елец - 2009

³¹ Братусь И. Б., Воронин С. В. К проблеме типологии звукоизобразительных систем // Вестн. Ленингр. ун-та. 1980. № 20. С. 90–95.

³² Juravlyov A.P. Foneticheskoe znachenie. L., 1974. S. 160.

³³ В.М. Шаклеин. Лингвокультурная ситуация в современной России: Монография. — М.: Флинта: Наука, 2010. — 152 с.

J.A.Ponamaryov, S.L.Rubinsteyn, M.T.Baranov³⁴, kabi rus pedagoglari tomonidan rus tilini o‘qitish muammolari bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan, rus tilini o‘qitishning yangi usullari va usullari to‘g‘risida ilmiy nashrlar etilgan, amaliy ishlar masalalariga bag‘ishlangan.

J.Belz, S.Thorne, M.Warshauer, J.Abbitt, J.Ophus, N.Barahona, B.Dodge, G.Dudenev, N.Hockly, J.A.Farreny³⁵, T.March kabi xorijiy olimlar tadqiqotlarida o‘quv jarayonini loyihalashtirish masalalari yoritilgan. J.Lass Norman, Samaneh Seyedabadi, Azar Hosseini Fatemi tadqiqotlari ona tilini o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan. G.Furstenberg, J.Corbett Higgins, B.Holmberg, M.More kabi olimlar tadqiqotlarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va metodlari haqida fikr yuritilgan.

Biroq animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, uning mazmuni, metodi, vositalari alohida tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining: O‘zbekiston oliy ta‘lim sohasidagi ta‘lim va jarayonlarni xalqarolashtirish va modernizatsiya qilish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: animatsion yondashuv asosida nofilologik yo‘nalishda taxsil olayotgan talabalarga rus tili fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta‘lim talabalariga animatsion yondashuv asosida rus tili fanini o‘qitishning pedagogik mazmuni bosqichma-bosqich murakkablashtirish tizimini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari vizual va dinamik taqdimot konteksti bilan o‘zaro korreksiyalash asosida takomillashtirilgan;

animatsion yondashuv asosida rus tilini o‘qitishning didaktik imkoniyatlari vizual-audio materiallarni animatsion-lingvistik model talablariga moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o‘qitish metodikasi ta‘lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o‘qitishning metodikasini takomillashtirish jarayonlari tanlangan.bo‘lib, tajribasino‘v ishlarida Namangan davlat universiteti, Andijon davlat universiteti va Toshkent agrar davlat unuversitetlari nofilologik yo‘nalishlaridan jami 638 nafar talaba-respondent ishtirok etgan.

³⁴ Баранов М.Т., Методика преподавания русского языка в школе: Учебник М 54 для студ. высш. пед. учеб. заведений / М. Т. Баранов, Н. А. Ипполитова, Т. А. Ладыженская, М. Р. Львов; Под ред. М. Т. Баранова. - М.: Издательский центр «Академия», 2001. - 368 с.

³⁵ Farreny J.A. Webquests and Blogs: Web-based Tool for EFL Teaching/ J.A.Farreny , 2005. – 13p.

Tadqiqotning predmetini animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning metodik tizimi mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, sotsiometrik usullar (suhbat, anketalash, test, intervyu), eksperiment, monitoring, shkalalash, matematik statistika, sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat;

oliy ta'lim talabalariga animatsion yondashuv asosida rus tili fanini o'qitishning pedagogik mazmuni o'quv-ta'lim jarayonida o'qituvchini animatsion kontentni loyihalovchi moderator sifatidagi faoliyatiga ta'lim oluvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish tizimini integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari animatsion darslar strukturasi rus tili materiallaridan talaffuzni intensiv rivojlantirishga xizmat qiluvchi animatsion-lingvistik komponentlarini vizual va dinamik taqdimot konteksti bilan o'zaro korreksiyalash asosida takomillashtirilgan;

animatsion yondashuv asosida rus tilini o'qitishning didaktik imkoniyatlari talaffuzni shakllantiruvchi artikulyatsiya jarayonini ko'rsatuvchi animatsion mashqlar to'plamiga tilni o'qitishda ko'pkanalli idrokni faollashtiruvchi vizual-audio materiallarni animatsion-lingvistik model talablariga moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitish metodikasi ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ko'pkanalli idrokni (ko'ruv, eshituv, kinestetik) birlashtirishga qaratilgan jonli animatsiyalar, ovozli vizualizatsiyalar va interaktiv topshiriqlarni uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitishning metodikasi va texnologiyasining pedagogik shartlari aniqlangan va asoslab berilgan;

rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning leksik bazasini kengaytirish, ularning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish maqsadida rus tili fani bo'yicha o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalarini uchun predmetli (mavzuga mos) mazmuni bo'yicha rus tilidagi Web-Quest matnlari ishlab chiqilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitishning metodikasi va texnologiyasi modeli ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Rasmiy manbalardan olingan yondashuvlar, usullar va nazariy ma'lumotlardan foydalanilganligi, eksperimental ishlar natijalarining matematik statistik usullari vositasida asoslanganligi, ishlab chiqilgan didaktik materiallar, xulosalar va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati OTMlardagi rus tili mashg'ulotlarida talabalarning nutqiy malakalarini rivojlantirish uchun uslubiy yondashuvlar va pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bilan izohlanadi. Shuningdek, ilmiy ahamiyat rus tili bo'yicha oddiy

grammatik va leksik bilimlar zaxirasidan sust foydalanadigan talabalarning kasbini egallashdagi asosiy muammolarini hisobga olgan holda, kompyuter texnologiyalari, kimyo, tarix, biologiya va fizika fanlari bo'yicha rus tilidagi kasbga oid manbalardan foydalana olish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya muammosi bo'yicha adabiyotlarni nazariy tahlil qilish natijasida olingan materiallar oliy ta'lim muassasalari talabalariga rus tilini o'qitish jarayonida qo'llanishi mumkinligi, innovatsion texnologiyalar – multimediali animatsion asosda nofilologik yo'nalish talabalari uchun ishlab chiqilgan nutqiy malakalari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitishning metodikasini takomillashtirishga oid tadqiqotda olingan ilmiy natijalar asosida:

oliy ta'lim talabalariga animatsion yondashuv asosida rus tili fanini o'qitishning pedagogik mazmuni o'quv-ta'lim jarayonida o'qituvchini animatsion kontentni loyihalovchi moderator sifatidagi faoliyatiga ta'lim oluvchilarning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish tizimini integratsiyalash asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy yangiligidan oliy ta'lim talabalari uchun ishlab chiqilgan "Русский язык" nomli o'quv qo'llanmani mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan berilgan 391037 raqamli ruxsatnoma). Natijada talabalarda animatsion material yordamida ilmiy bilimlarini rivojlantirish va nutq, til va muloqot qobiliyatlari shakllantirishga erishilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari animatsion darslar strukturasi rus tili materiallaridan talaffuzni intensiv rivojlantirishga xizmat qiluvchi animatsion-lingvistik komponentlarini vizual va dinamik taqdimot konteksti bilan o'zaro korreksiyalash asosida takomillashtirishga doir ilmiy yangiligidan 2018-2020-yillarda bajarilgan PZ-20170929789 raqamli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" nomli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy universitetining 2024-yil 8-apreldagi 04/11-2774-sonli ma'lumotnoma). Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun predmetli (mavzuviy) mazmuni bo'yicha rus tilidagi Web-Quest matnlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

animatsion yondashuv asosida rus tilini o'qitishning didaktik imkoniyatlari talaffuzni shakllantiruvchi artikulyatsiya jarayonini ko'rsatuvchi animatsion mashqlar to'plamiga tilni o'qitishda ko'pkanalli idrokni faollashtiruvchi vizual-audio materiallarni animatsion-lingvistik model talabalariga moslashtirish asosida takomillashtirishga oid yangiliklaridan 2020-2022 yillarga bajarilgan FZ-2020010829-raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" nomli ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 5-apreldagi 04/11-2732-sonli ma'lumotnoma). Natijada animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini

o'qitishning metodikasi va texnologiyasi modeli takomillashtirilgan va amaliyotga tadbiq etilgan;

animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitish metodikasi ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ko'pkanali idrokni (ko'ruv, eshituv, kinestetik) birlashtirishga qaratilgan jonli animatsiyalar, ovozli vizualizatsiyalar va interaktiv topshiriqlarni uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid ilmiy yangiliklardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DM muharririyati tomonidan tayyorlangan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari", "Bolalar uchun" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 12 dekabrda 04-36-1867-son ma'lumotnoma). Natijada eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan hamda animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o'qitish metodikasini takomillashuviga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda taqdim va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, shulardan 3 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 140 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy yangiligi, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tilini o'qitishning nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib rus tilini o'qitishning asosiy maqsadi – talabalarni OTMga kirishdan oldin so'z boyligi va grammatik qoidalar bilan to'liq tanishtirishdir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlari amaliy mashg'ulotlar orqali tashkil etiladi, o'qituvchi tomonidan taqdim etiladigan o'quv materiallari bilan boyitiladi.

Rus tili darslarida real muloqot muhitini yaratish, o'qituvchi fasilitator sifatida darslarini tashkil etib, talabalarni ruhlantirishi va faol bo'lishga undashi, ulardagi ko'zga tashlangan kamchiliklar ustida muntazam ishlash, darslarda lingvistik kompetensiyaning har bir komponentini bir-biridan ajratmay eklektik tarzda o'qitish, nutqiy kompetensiyaning hamma aspektlarini teng rivojlantirish orqali

talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishga erishiladi. Natijada, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish va ulardagi fikrlash qobiliyatining o‘sganligi, tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanganligi va muloqot tilining mazmunli, tushunarli, vaziyatga mos kabi holatlarida o‘z aksini topadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rus tili fanini animatsion yondashuv orqali o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning nutq va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki turli adabiyotlarni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Rus tili fanini o‘qitish, ayniqsa, filologik bo‘lmagan yo‘nalishdagi talabalar uchun juda muhimdir, chunki rus tilini bilish ularning turli adabiyotlarni o‘qish va tushunish, til ko‘nikmalarini shakllantirish va ularni amalda qo‘llash qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

O‘qitish sifatini ta‘minlash uchun innovatsion, noan‘anaviy yondashuvsiz oliy ta‘lim tizimi faoliyatini rivojlantirish mumkin emas. Shu bois, “ta‘lim sifati” g‘oyasi umuminsoniyat rivojlanishining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Y.A.Maslova ta‘lim jarayoni sifatining uch asosiy jihatlarini alohida qayd etadi. “Birinchidan, bilimlar, ko‘nikmalar va kompetensiyalar sifatidagi asosiy xususiyatlar; ikkinchidan, oliy ta‘lim tomonidan taqdim etilayotgan shart-sharoitlar; uchinchidan, ta‘lim muassasasining obro‘si, nufuzi, o‘qituvchilar va ta‘lim olayotganlarning kommunikativ layoqati va boshqa xususiyatlar tegishlidir”³⁶ deb ta‘rif beradi. (1-rasmga qarang).



1-rasm. Ta‘lim jarayoni sifatining uch asosiy jihati tuzilmasi.

Hozirgi sharoitda yangi ta‘lim standartlariga ehtiyoj bor. Davlat standartlari bilan birgalikda bir necha daraja va sohalarida mutaxassislar tayyorlashga asoslangan jamoat va kasbiy standartlar ishlab chiqiladi va joriy etiladi. Bundan tashqari, amaliy, umumta‘lim va tarbiyaviy maqsadlarning birligi tufayli rus tilini o‘qitish qayta ko‘rib chiqilmoqda va yangilanmoqda. Tadqiqot doirasida rus tili fani mashg‘ulotlarida talabalarning faolligini oshirishining bir qator pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlarini ajratish imkoni yaratildi.

Rus tili fanini o‘qitishni zamon talablari darajasiga yetkazish uchun fan dasturida ko‘rsatilgan mavzular bo‘yicha ma‘lumotlarni to‘plash va ularni multimediali kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash bugungi kunning

³⁶ Маслова. Ю.А. Изучение форм и средств диалогизации учебного монолога в процессе методической подготовки учителя русского языка.

dolzarb masalasi hisoblanadi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llanilishi pedagogik texnologiyalarni inkor etmagan holatda parallel olib borilishi maqsadga muvofiq.

Zamonaviy dasturiy vositalar AutoCAD, 3DMax va boshqa dasturlar fanni o'qitishda o'qituvchi uchun yordamchi bo'lib xizmat qilsa, bilimlarni o'zlashtirayotgan talabalar uchun fanning ma'no mazmunini tushunishga, fazoviy tasavvuri, ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishiga, fanni o'zlashtirish ko'rsatkichini yaxshilashga olib keladi. To'plangan ma'lumotlarni qayta ishlashda kompyuter grafikasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Animatsiya – bu vizual industriya va tasvir harakatining texnikasi va usuli, shuningdek, obyektlar, odamlar yoki sahnalarning jonli namoyishi bilan ajralib turadigan industriya va chizish jarayoni. U kino, televideniye, video o'yinlar, reklama, ta'lim va boshqalar kabi turli sohalarda qo'llaniladi. Animatsiyani ta'kidlash uchun biz quyidagi asosiy jihatlarni ko'rsatib o'tamiz:

Animatsiyaning quyidagi asosiy turlarini ko'rsatamiz:

1. Animatsiya texnikalari:

- tasvirlar orqali animatsiya: tasvirni qo'llab-quvvatlash orqali kadrlarni yaratish. Bu Disney tomonidan ishlatilgan klassik 2D-animatsiyani (masalan, multfilmlar) va raqamli rasmi animatsiyani o'z ichiga oladi.

2. Animatsiya yaratish jarayoni:

- preprodaksiya: tayyorgarlik bosqichi, ssenariy, obrazlar va sahnalarni dizayn qilishni o'z ichiga oladi, shuningdek animatsiya harakatlarini rejalashtirishni o'z ichiga oladi.

3. Animatsiyani qo'llanilishi:

- kino va televideniye: animatsiya multfilmlar, animatsion seriallar va boshqa maqbul film prodaksiyasini yaratish uchun qo'llaniladi;

- video o'yinlar: o'yin qahramonlari, obyektlari va muhitini animatsiya qilish;

- reklama va marketing: animatsiya mahsulotlari va xizmatlari mahsulotlarni reklama qilishda foydalaniladi.

Animatsiyadan foydalanish murakkab mavzular yoki jarayonlarni tasavvur qilish va tushunish imkonini beradi. Animatsiyaga asoslangan ta'lim xabarlar va murakkab mavzularni soddalashtirishi va talabalar konsentratsiyasini yaxshilashga yordam beradi.

Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o'qitish orqali kasbiy faoliyatga tayyorgarligining mohiyati ijtimoiy-psixologik xususiyatiga ko'ra quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi: o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi o'zaro mazmunli va manfaatli munosabat o'rnatish qobiliyatining amaliy ifodasida; talabaning muloqotga ehtiyoji, o'z qarash va g'oyalarini taqdimot qilishi, o'z-o'ziga ishonchi, o'z kommunikativ faoliyatiga baho berishida; o'qituvchi o'zining hayotiy tajribasi, muloqot mahorati, individual-psixologik xususiyatlarida. Natijada, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish ulardagi fikrlash qobiliyatining o'sganligi, tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanganligi va muloqot tilining mazmunli, tushunarli, vaziyatga mos kabi holatlarida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, rus tilidagi darslarda quyidagi vazifalarni bajarish kerak: haqiqiy rus muhitini yaratish, o'qituvchi pedagog-fasilitator sifatida darslarni tashkil qilish,

talabalarni rag'batlantirish va faol bo'lishga undash, kamchiliklar ustida muntazam ishlash, til kompetensiyasining har bir tarkibiy qismini bir-biridan ajratmasdan mashg'ulotda eklektik tarzda o'rgatish, nutq kompetensiyasining barcha jihatlarini teng ravishda rivojlantirish orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishga hissa qo'shish.

Natijada, talabalarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish ularning fikrlash qobiliyatining o'sishi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va mazmunli, tushunarli, vaziyatli nutq kabi holatlarga ta'sir qiladi. Tilni mukammal o'zlashtirishga talabalar rus tili darslarida topshiriqlarni bajarib, erkin muloqot qilishlari va amalda til elementlarini ko'proq qo'llab-quvvatlashga va ularni rivojlantirishga harakat qilishlariga yordam beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili fanini o'qitishning metodik ta'minoti**" deb nomlangan bo'lib, bugungi kunda ta'lim jarayoni, sifati va samaradorligiga erishish, bo'lajak mutaxassislariga rus tili fanini o'qitishda ulardagi ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi, ko'nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo'llash malakasini shakllantirish, turli matnlar tuzish va mutaxassislik bo'yicha maqola va referatlar yozish, nutqni rivojlantirish, berilgan ma'lumotlarni anglash, tushunish. tahlil qilish masalalari o'quv mashg'ulotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va metodlarini qo'llash jarayonida o'z yechimini topadi.

Rus tili fanini o'qitishda animatsion yondashuvlar quyidagi hollarda namoyon bo'ladi:

- oliy ta'lim muassasalarida rus tili fanini o'qitishni tashkil etish bo'yicha animatsion yondashuvlarga asoslangan maqsadli faoliyat olib borilganda;
- oliy ta'lim muassasalarida rus tili fanini o'qitishda ta'limning animatsion texnologiyalariga asoslangan tarmoqlari rivojlantirilganda.


Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi – bu o'quvchi talabalarning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etishning maxsus usuli bo'lib, unda o'qituvchi bolaning bilish qobiliyatlari, imkoniyatlari va manfaatlariga javob beradigan ta'lim uslubi va usullarini tanlaydi.

Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'i rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilardan iborat:

- talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi.

Zamonaviy oliy maktabning vazifalaridan biri – bu shaxsni rivojlantirish va talabaning individualligini qo'llab-quvvatlashdir. Individuallik – bu boshqa odamlardan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan farqlari bilan ajralib turadigan shaxs; shaxsning psixikasi va shaxsiyatining o'ziga xosligidir. Individuallik temperament, fe'l-atvor xususiyatlarida, qiziqishlarning o'ziga xos xususiyatlarida, idrok jarayonlari va aql-idrok fazilatlarida, shaxsning ehtiyojlari va qobiliyatlarida namoyon bo'lishi mumkin. Maqsadlarga erishish uchun individuallashtirish

qo‘llaniladi. Individuallashtirish shakli – bu individual ta‘lim trayektoriyasi yoki individual ta‘lim yo‘nalishidir. Shaxsiy ta‘lim trayektoriyasi – bu har bir talabaning ta‘limdagi shaxsiy salohiyatini ijodiy amalga oshirishning shaxsiy yo‘li sanaladi. Shu asosda shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni sxematik ko‘rinishi quyidagicha aks etadi (**2-rasmga qarang**).



2 – rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni

Pedagog tomonidan ta‘lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo‘llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o‘stirishga xizmat qiladi.


Xususan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishlash va boshqalar


Respublikamiz barcha oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil etishda bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bosqichlari mavjud bo‘lib, tayyor bilimlarni bo‘lajak mutaxassislar ongiga yetkazish, tushunish, anglash, xotirlash, xotirada saqlash, qayta xotirlash, so‘zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajasini ifodalaydi.

Muammoli va shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari ta‘limning mobillashuvi sharoitida bo‘lajak mutaxassislarning ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. (**3-rasmga qarang**).

Bugun barcha oliy ta‘lim muassasalarida dars mashg‘ulotlar samaradorligiga erishish uchun o‘qitishning zamonaviy, innovatsion ta‘lim metodlari va texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi. Zamonaviy ta‘lim metodikasi quyidagi talablarga javob berishi kerak. (**4-rasmga qarang**).




3-rasm. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy qismlari.



4-rasm. Kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim metodikasi.

Ma'lumki, darslarni tashkil etishda ko'rgazmali materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri darslarning ko'rgazmali ta'minlashdan iboratdir. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda pedagog turli xildagi ko'rgazmalardan foydalanadi: tabiiy va rasmi, grafik va hajmli, ovozli, ramzli. Agar metodika to'g'ri tanlangan bo'lsa, u holda materialni qabul qilish muvaffaqiyatli bo'ladi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, axborotning 75% dan ko'prog'ini shaxs ko'rish vositasida o'zlashtiradi.

Raqamli texnologiyalar ta'limining o'qitish shakllari va usullari, tuzilishi, mazmuni hamda maqsadlari o'zgarishini oldindan belgilab beradi. "Rus tili" fanini o'qitishda uning "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" paradigmasini amalga oshirish zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi va shu munosabat bilan ta'limda animatsion texnologiyalardan foydalanish muammosini yetakchi o'ringa chiqaradi. Tadqiqot natijasida animatsion yondashuv yordamida talabalarga rus tili o'qitishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi (**5-rasmga qarang**).



5-rasm. Animatsion yondashuv yordamida talabalarga rus tili fanini o'qitishning takomillashtirilgan modeli.

Animatsion vositalar orqali talabalarga rus tili fanini o'qitishning takomillashtirilgan modelida ijtimoiy buyurtma "Rus tili" fani professor-o'qituvchilarini oliy ta'lim tizimining DTS va malaka talablariga muvofiq o'qitish hamda ularning malakalarini muntazam ravishda oshirish nazarda tutilgan.

Yaratilgan modelning asosiy maqsadi animatsion yondashuv asosida ta'lim berish borasida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ta'lim olishni takomillashtirish orqali mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Model yaratishdan ko'zlangan maqsad – animatsion yondashuvdan foydalangan holda mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishdan iboratdir.

Animatsion yondashuv asosida rus tili fanini o'qitishda tashqi va ichki ko'rgazmalilik qo'llaniladi. Ichki ko'rgazmalilik ona tili va o'rganilayotgan rus tilini taqqoslashda o'z ifodasini topadi. Bu ko'rgazmalilik tashqi ko'rgazmalilik bilan bir qatorda tatbiq qilinadi. O'qitishning mustahkamlik tamoyili o'qitish vazifalari, ta'limning qonuniyatlari bilan belgilanadi. Agar bilimlar puxta o'zlashtirilgan va xotirada yaxshiroq saqlangan bo'lsa, bunday bilimlarga, malaka va ko'nikmalarga, o'qitishning keyingi bosqichlarida va hayotda amal qilinishi mumkin. Animatsion yondashuv asosida rus tili fanini o'qitishga nisbatan bilimlarning mustahkamligi, bilimlarni mustahkam egallashni va nutq harakatlarini mukammal bilishini bildiradi, talabalar ulardan muomalada erkin foydalana oladilar. Ta'limdagi tizimlilik va izchillik talabalarining amaliy faoliyatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Tizimlilik tamoyili o'qituvchi va talaba, talabalar faoliyatidagi ishlarni, o'qitish, tarbiyalashni ma'lum tizimda, izchillikda bo'lishini nazarda tutadi.

Rus tili fanini o'qitishda turli nutq faoliyati turlari ma'lumotni oldindan idrok etishni, uni o'qitishni, ijodiy qayta ishlashni va shundan keyingina "yaxlit nutq mahsuloti" shaklida o'z munosabati bilan to'yintirilgan ma'lumotni uzatishni o'z ichiga oladi. Ushbu idrok o'qitish yoki tinglash jarayonida amalga oshiriladi hamda o'qitish shartlari va maqsadiga bog'liq. O'qilgan va eshitiladigan narsa so'zlovchining gapirish niyatiga qanchalik yaxshi kirib borsa, uni qayta ifodalash, buning uchun zarur bo'lgan so'zlar va grammatik tuzilmalarni xotiradan chiqarib olish shunchalik muvaffaqiyatli kechadi. Bu borada turli nutq faoliyat turlarining o'zaro ijobiy ta'sir etishiga asoslanib, uning ustuvor tamoyillari ko'rib chiqildi.

Dissertatsiyaning **"Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili o'qitish metodikasi va texnologiyasiga doir tajriba-sinov ishlarining mazmuni"** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni va eksperiment ishidan olingan tahlil natijalari keltirilgan. Tadqiqot muammosini nazariy anglash hamda nofilologik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalarining rus tili darslarida kommunikativ kompetensiyasini zamonaviy metod, kommunikativ mashq, o'yin va AKTlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari yuzasidan tashkil etilgan tadqiqot ishi kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkinligini aniqlashga imkon berdi.

Ilmiy-tadqiqot ishida oliy ta'lim talabalarining rus tilida kasbiy rivojlantirish maqsadida tajriba-sinov ishlarini o'tkazdik. Ilgari surgan ilmiy farazlarimizni dalillash yo'lida, avvalo, tajriba-sinov jarayonida qatnashadigan oliy ta'lim muassasalari tarix yo'nalishlarini tanlab oldik.

